

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.1.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MUSTAPAYEV AHROR ISLOMOVICH

**TO‘QIMACHILIK SANOATI XODIMLARI KOMPETENTLIGINI
BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavleniye avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
po ekonomicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Mustapayev Ahror Islomovich

To'qimachilik sanoati xodimlari kompetentligini boshqarishni takomillashtirish.....	3
--	---

Mustapayev Axror Islamovich

Совершенствование управления компетентностью работников текстильной промышленности.....	25
--	----

Mustapaev Akhror Islamovich

Improving the competence management of textile industry employees.....	49
--	----

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....	55
------------------------------	----

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.1.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MUSTAPAYEV AHROR ISLOMOVICH

TO‘QIMACHILIK SANOATI XODIMLARI KOMPETENTLIGINI
BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.2.PhD/Iqt1732 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (tsuye.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muminova Nargiza Maqsudjonovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismailov Akmal Maksudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ kuni soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-74; faks: (99871) 239-41-21; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djuraboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

Sh.A. Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotiga sifat o'zgarishlari birinchi navbatda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga ko'ra bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishda xodimlar kompetentligini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra "2030-yilga borib 15-24 yoshda bo'lgan aholi sonining 1,3 mlrd bo'lishi bashorat qilinmoqda"¹. Bugungi kunda ta'lim tizimi sifatini oshirishga ko'ra kadrlar raqobatbardoshligini oshirgan holda xodimlar kompetentligini samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqarishga joriy qilish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar hamda inson kapitalini rivojlantirishga oid tadqiqotlar tarkibida kompetentlik bozor raqobati sharoitida unumdorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishiga ko'ra sanoat ishlab chiqarishi, jumladan to'qimachilik sanoati xodimlari kompetentligini samarali boshqarish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada IT-texnologiya va innovatsion menejmentga asoslangan holda kadrlar tayyorlash va iste'molchilar talablariga ko'ra malaka oshirishni tashkil qilish, boshqaruv tizimi samaradorligiga ko'ra inson kapitalini rivojlantirish, dual ta'limini samarali tashkil etish, raqobat sharoitida korxonalarning ishchi kuchi xulq-atvori sifatini oshirish kabilar yuzasidan samarali shakl, vosita va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish (takomillashtirish) mavzulari yo'nalishidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda sanoat ishlab chiqarishi, jumladan to'qimachilik sanoatini sifat jihatdan rivojlantirish, jahon talablariga muvofiq holda ishlab chiqarishni tashkil etish, raqobatbardosh mahsulotlar tarkibini kengaytirish kabilar bilan bir qatorda xodimlari kompetentligini muvofiq holda ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish"² vazifasi belgilangan. Bu borada to'qimachilik sanoati uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sifatini dual ta'limga ko'ra oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda soha xodimlari kompetentligini rivojlantirish va kompetensiyaga asoslangan rag'batlantirish tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik

¹State Education Market Size & Trends. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/higher-education-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. // www.lex.uz.

klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017-yil 14-dekabrdagi PF-5285-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 49-son "Oliy ma'lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bozor munosabatlarining nazariy asoslarini ko'rib chiqishda mehnat bozori va bandlikni tadqiq etish imkoniyatlari, xodimlar kompetentligini boshqarish masalalari xorijlik olimlar R.Boyatsis, Ch. Vudraf, Devid A. Marka, E. Deming, P.F. Druker, Dj.U.Dunkan, G.R.Niv, Dj.Raven, L.M.Spenser, S.M.Spenser, U.Klement, R.Arnold, R.U.Uayt va boshqalar³ tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida mehnat salohiyatini rivojlantirishda xodimlar kompetentligini boshqarish masalalari bilan Ye.N.Annenkova, N.I.Arhipova, Ye.I.Atlyaguzova, R.G.Ayupov, Ye.N.Belova, L.V.Gashkova, S.V.Rachek,

³Boyatsis R. Kompetentnyy menedjer. Model effektivnoy raboty [Tekst] / R. Boyatsis / Per. s angl. – M.: HIPPO. – 2018. – 352 s.; Vudraf Ch. Sentry otsenki i razvitiya [Tekst] / Ch. Vudraf / Per. s angl. – M.: HIPPO, 2015. – 384 s.; Devid A. Marka. Metodologiya strukturnogo analiza i proyektirovaniya SADT (Structured Analysis & Design Technique. [Tekst] / Devid A. Marka, Klement Mak Gouen. Per. s angl. Meta Texnologiya, 2023. – 243 s.; Deming E. Vыход iz krizisa: Novaya paradigma upravleniya lyudmi, sistemami i protsessami. – M.: Alpina Pablishez, 2017. – 356 s.; Druker P.F. Menedjment. Vyzovy XXI veka / P.F. Druker. — M.: "Mann, Ivanov i Ferber", 2012. — 256 s.; Dunkan Dj. U. Osnovopolagayushie idei v menedjmente. Uroki osnovopolojnikov menedjmenta i upravlencheskoy praktiki [Tekst] / Dj. U Dunkan; Per. s angl. – M.: Delo, 2016. – 526 s.; Niv G.R. Prostranstvo doktora Deminga: principy postroyeniya ustoychivogo biznesa [Tekst] / Genri R. Niv; per. s angl. – M.: Alpina Biznes Buks, 2015. – 366 s.; Raven Dj. Kompetentnost v sovremennom obshchestve: vyavleniye, razvitiye i realizatsiya [Tekst] / Dj. Raven; per. s angl. – M.: Kogito-Sentr, 2022. – 396 s.; Spenser-ml., Layl M., Spenser Sayn M. Kompetensii na rabote. Model maksimalnoy effektivnosti raboty [Tekst]/ Layl M. Spenser-ml., Sayn M. Spenser; per. s angl. – M.: HIPPO. – 2015. – 384 s.; Clement U., Arnold R. (Hrsg.) Kompetenzentwicklung in der beruflu-chen Bildund [Text] / U. Clement, R. Arnold. – Opladen: Leske+Budrich, 2002. — P. 203-228.; White R.W. Motivation reconsidered: The concept of competence [Text] / R.W. White // Psychological review. – 2019. – № 66. — P. 297-333.

B.M.Genkin, Ye.N.Yevdokimova, A.Y.Kibanov, T.Y.Bazarov, N.S.Subochev, T.G.Arhipova, L.I.Chernishova, O.L.Chulanova va boshqalar⁴ shug'ullanishgan.

Mamlakatimizda sanoat, xususan to'qimachilik sanoati kadrlari salohiyati, xodimlarini rivojlantirish, uni boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari Q.X.Abdurahmanov, H.R.Xolmo'minov, N.Q.Zokirova, A.M.Irmatova, A.B.Xaitov, A.M.Akbarov, N.Q.Yo'ldoshev, S.S.Yusupov, G'.Zoxidov, D.N.Rahimova, M.R.Boltaboyev, O.K.Rixsimboyev, B.O.Ganiyev, R.A.Isayev, S.N.Yuldashev, O.A.Davronov, M.R.Xudaykulov va boshqalar⁵ tomonidan tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, to'qimachilik sanoati korxonalarining kadrlar salohiyati, xodimlarni o'qitish va ular malakasini oshirish orqali kompetentlikni boshqarish masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi va ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini baholash amaliyotini takomillashtirish (ПЗ-20170930136)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

⁴Annenkova Ye.N. Upravleniye razvitiyem trudovogo potentsiala sovremennoy organizatsii: Dis. kand. ekon. nauk. – Saratov, 2005. – 174 s.; Arhipova N.I. Sovremennyye problemy upravleniya personalom: monografiya / S.V. Nazaykinskiy, O.L. Sedova, Ros. gos. gumanitar. un-t, N.I. Arhipova. – M.: Prospekt, 2018. – 161 s.; Atlyaguzova Ye.I. Kompetentnostnaya model spetsialista texnicheskogo profilya [Tekst] / Ye.I. Atlyaguzova // Vektor nauki Tolyatinskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2012. – №1(8). – 45 s.; Ayupov R.G. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti kak faktor povysheniya urovnya motivatsii personala [Tekst] / R.G. Ayupov // Aktualnyye voprosy ekonomicheskix nauk (II): m-ly Mejdunarodn. nauchn. konf. (Ufa, aprel 2013 g.). – Ufa: Leto, 2013. – S. 85–87.; Belova Ye.N. Upravlencheskaya kompetentnost rukovoditelya: monografiya. – Krasnoyarsk: Krasnoyarskiy gosudarstvennyy universitet, 2018. – 273 s.; Gashkova L.V. Protessnoye upravleniye razvitiyem kompetensiy spetsialistov jeleznodorojnogo transporta [Tekst] / L.V. Gashkova, S.V. Rachev // Sovremennyye problemy nauki i obrazovaniya. – 2014. – № 2. – S. 423.; Genkin B.M. Upravleniye personalom v Rossii: 100 let.: Monografiya / B.M. Genkin, A.V. Gluxova, I.B. Durakova i dr. — M.: Infra-M, 2015. — 320 c.; Yevdokimova Ye. N. Evolyutsiya protessnogo podxoda v upravlenii i perspektivy yego razvitiya / Ye.N. Yevdokimova // Upravleniye ekonomicheskimi sistemami [Elektronnyy resurs]. – Rejim dostupa: <http://www.uecs.ru/marketing/item;> Kibanov A.Ya. Upravleniye personalom v Rossii: Monografiya / A.Ya. Kibanov, I.B. Durakova, I.A. Esaulova i dr. — M.: Infra-M, 2018. — 240 c.; Bazarov T.Yu. Upravleniye personalom / T.Yu. Bazarov. — M.: Academia, 2017. — 219 c.; Glik D.I. Effektivnaya rabota s personalom: prakticheskoye posobiye / D. I. Glik. – 2-ye izd. – Saratov: Ay Pi Er Media, 2019. – 144 c.; Chernyshova L.I. Organizatsionno-ekonomicheskii mexanizm upravleniya razvitiyem personala sovremennoy predpriyatiya: diss. ... na soisk. uch.st. kand. ekonom. nauk. – 08.00.05 [Tekst] / Lidiya Ivanovna Chernyshova. – Yekaterinburg, 2010. — 178 s.; Chulanova O.L. Formirovaniye i razvitiye kompetentnostnogo podxoda v rabote s personalom: teoriya, metodologiya, praktika: diss. ... na soisk. uch. st. d-ra ekonom. nauk: 08.00.05 [Tekst] / Chulanova Oksana Leonidovna. – M., 2014. — 339 s.

⁵Abdyrahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q., Irmatova A.M. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 580 b.; Abdyrahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Xaitov A.B., Akbarov A.M. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: TDIU, 2014. – 294 b.; Yo'ldoshev N.Q., Yusupov S.Sh., Zaxidov G'. Menejment asoslari va biznes reja. – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 244 b.; Rahimova D.N. va boshqalar. Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: "G'ofur G'ulom ijodiy uyi", 2007. – 320 b.; Yuldashev N.K., Boltaboyev M.R., Rixsimboyev O.K., Ganiyev B.O. Strategik menejment: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2003. – 102 b.; Yusupov S., Isayev R., Yuldashev S., Davranov O. Qqtisodiyot va menejment. – T."Factor books", 2021. – 611 b.; Xudoykulov M.R. To'qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. IFFD (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. – T.:TDIU, 2019. – 24 b.

Tadqiqotning maqsadi bozor raqobati sharoitida to‘qimachilik sanoati xodimlari kompetentligini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xodimlar kompetentligini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda mohiyatini ochib berish;

sanoat korxonasi xodimlarini boshqarish bosqichlarini tadqiq etish;

xodimlar kompetentligini boshqarishning xorij tajribalarini o‘rganish hamda O‘zbekiston Respublikasi uchun maqbul jihatlarini olish bo‘yicha takliflar qilish;

mutaxassislarni tayyorlashda buyurtmachi sanalgan to‘qimachilik sanoati tarmog‘i va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi integratsion aloqalar tahlilini amalga oshirish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish holatini tahlil qilish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarida xodimlar kompetentligini boshqarishning hozirgi holatini tahlil qilish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarida jarayonli yondashuv asosida xodimlar kompetentligi boshqarish tizimini rivojlantirish;

to‘qimachilik sanoati korxonalari xodimlari kompetentligini baholash usulini takomillashtirish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarida kompetensiyaga asoslangan xodimlarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

bozor raqobati sharoitida to‘qimachilik sanoati xodimlari kompetentligini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasi tarkibiga kiruvchi Andijon viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlarining xodimlarini boshqaruv faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib to‘qimachilik sanoati korxonalari xodimlarini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli va statistik tahlil, strategik rejalashtirish, statistik tahlil, omilli tahlil, tanlanma kuzatuv, grafik talqin, portfel tahlil, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “kompetentlik” tushunchasi mazmuni barkamol inson sifatida kishining shakllanishi jarayoniga sinergetik ta’sirning ijobiy rivojlanishini hisobga olgan holda faoliyatini amalga oshirish muhitida (yoki boshqa vaziyatda) samarali qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgan salohiyat, qobiliyat, majburiyat, bilim va ko‘nikmalar umumiy majmuasi sifatida takomillashtirilgan;

to‘qimachilik sanoati korxonasi xodimlari kompetentlik darajasini baholashga yondashuv kasbiy malakaga talab etiladigan kompetensiya va vazifalar o‘rtasidagi muvofiqlik darajasi asosida xodimlar kompetentlik darajasining integral oraliq natijalari [juda past (0-0,200), past (0,201-0,500), qoniqarli (0,501-0,600),

yuqori (0,601-0,900), juda yuqori (0,901-1,00)] asosida baholashga ko'ra takomillashtirilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarini istiqbolda rivojlantirish strategiyasiga ko'ra kasbiy kompetentlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan biznes-jarayon modelini tanlashda "xodimlar kompetentligi salohiyati" va "menejment samaradorligi" matritsasi asoslanib, unga mos qiymatlari ("yuqori", "o'rta") darajasida amalga oshirish taklif etilgan;

to'qimachilik sanoati korxonasi samaradorligini oshirishda xodimlarni rag'batlantirishning faoliyatni tanlab olingan maqsadli sakkizta omil bo'yicha baholash, lavozim iyerarxiyasiga ko'ra toifalar jadvalini tuzish va har biri uchun rasmiy ish haqini belgilash kabilar bo'yicha besh bosqichli tizimi asoslangan holda ular kompetentligini ballar yordamida baholash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"xodimlarni boshqarish" biznes-jarayonining konseptual sxemasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

xodimlar kompetentligini boshqarishning xorij tajribasiga ko'ra, ularni milliy davrajada qo'llash imkoniyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

sanoat va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro aloqalarining mualliflik sxemasi ishlab chiqilgan;

"mutaxassis malakasi sifatini boshqarish" jarayonini boshqarish blok diagrammasi ishlab chiqilgan;

to'qimachilik sanoati korxonasi mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha kompetentlik modelini loyihalash algoritmi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilg'or xorijiy tajribani umumlash-tirish, to'qimachilik sanoatida xodimlar kompetentligini boshqarish borasidagi mavjud ilmiy-tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalari-dan olinganligi va ularni samarali tahlil usullaridan foydalanish orqali qayta ishlanganligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining statistik ma'lumotlariga hamda boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot-ning ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan sanoat korxonalari xodimlari kompetentlik darajasini oshirishni ta'minlaydigan biznes-jarayon modeli, ushbu modelni loyihalash va uni amalga oshirish algoritmi, kompetensiyaga asoslangan haq to'lash tizimi kabi takliflar respublikamiz to'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan xodimlarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga uslubiy jihatdan asos bo'lishi hamda raqobatda ustunlikka erishishga yo'naltirilgan xodimlar kompetentligini boshqarishni takomillashtirish, samaradorligini baholashga yo'naltirilgan uslubiyotni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar to'qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini uzoq muddatda strategik boshqarishni tashkil etish, inson kapitalidan unumli foydalanish, korxona xodimlari kompetentligini boshqarishga ko'ra iste'molchilar talablariga mos keng

assortimentdagi mahsulot turlarini ishlab chiqarish hamda sotish sohasida samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda sohaga oid darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bozor raqobati sharoitida to'qimachilik sanoati xodimlari kompetentligini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kompetentlik" tushunchasi mazmuni barkamol inson sifatida kishining shakllanishi jarayoniga sinergetik ta'sirning ijobiy rivojlanishini hisobga olgan holda faoliyatini amalga oshirish muhitida (yoki boshqa vaziyatda) samarali qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan salohiyat, qobiliyat, majburiyat, bilim va ko'nikmalar umumiy majmuasi sifatida takomillashtirish oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan "Iqtisodiyot va menejment" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 6-oktyabrdagi 522-sonli buyrug'i). Taklif bo'lg'usi mutaxassislarining sanoat korxonalari xodimlarini boshqarish tizimi borasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

to'qimachilik sanoati korxonasi xodimlari kompetentlik darajasini baholashga yondashuvining kasbiy malakaga talab etiladigan kompetensiya va vazifalar o'rtasidagi muvofiqlik darajasi asosida xodimlar kompetentlik darajasining integral oraliq natijalari [juda past (0-0,200), past (0,201-0,500), qoniqarli (0,501-0,600), yuqori (0,601-0,900), juda yuqori (0,901-1,00)] asosida baholash bo'yicha taklifdan "O'zto'qimachilik sanoati" tomonidan "Xodimlar kompetentligini boshqarish" Nizomini ishlab chiqishda va uyushma korxonalari xodimlarini boshqarish faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati"ning 2025-yil 5-iyundagi 03/25-1185-sonli ma'lumotnomasi), "ASAKATEKSTIL" MCHJ to'qimachilik korxonasining 2025-yil 14-maydagi dalolatnomasi). Mazkur taklif "ASAKATEKSTIL" MCHJ to'qimachilik korxonasida 2024-yilda 2023-yilga nisbatan xodimlari kompetentlik darajasini 0,126 bandga oshirishini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarini istiqbolda rivojlantirish strategiyasiga ko'ra kasbiy kompetentlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan biznes-jarayon modelini tanlashda "xodimlar kompetentligi salohiyati" va "menejment samaradorligi" matritsasi asoslanib, unga mos qiymatlari darajasida amalga oshirish taklifidan "O'zto'qimachilik sanoati" tomonidan "Tarmoq korxonalari kompetentlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan biznes-jarayon modeli"ni ishlab chiqishda va uyushma korxonalari, jumladan "ASAKATEKSTIL" MCHJ boshqaruv faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati"ning 2025-yil 5-iyundagi 03/25-1185-sonli ma'lumotnomasi), "ASAKATEKSTIL" MCHJ to'qimachilik korxonasining 2025-yil 14-maydagi dalolatnomasi). Mazkur taklif "ASAKATEKSTIL" MCHJ boshqaruv xarajatlarini 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 6,4 % ga kamaytirish imkonini yaratishga muayyan darajada xizmat qilgan);

to'qimachilik sanoati korxonasi samaradorligini oshirishda xodimlarni rag'batlantirishning faoliyatni tanlab olingan maqsadli sakkizta omil bo'yicha baholash, lavozim iyerarxiyasiga ko'ra toifalar jadvalini tuzish va har biri uchun

rasmiy ish haqini belgilash kabilar bo'yicha besh bosqichli tizimi asoslangan holda ular kompetentligini ballar yordamida baholash taklifidan "O'zto'qimachilik sanoat" tomonidan "Tarmoq korxonalarida kompetentlik darajasiga ko'ra ish haqi to'lash tartibi"ni ishlab chiqishda va uyushma korxonalari, jumladan "REKORD TEX" MCHJ faoliyatiga joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoat"ning 2025-yil 5-iyundagi 03/25-1185-sonli ma'lumot-nomasi), "REKORD TEX" MCHJ to'qimachilik korxonasining 2025-yil 15-maydagi dalolatnomasi). Taklif "REKORD TEX" MCHJ to'qimachilik korxonasida taqqoslama narxlarda sotishdan tushgan yalpi tushum ko'rsatkichining 16,7 foizga o'sishiga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy mazmuni bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shundan 3 ta milliy va 2 ta xalqaro jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Uning hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning "**Sanoatda xodimlar kompetentligini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida xodimlar kompetentligini boshqarishning mohiyatini ochib berish, kompetentlik yondashuvi paydo bo'lish bosqichlarini tizimlashtirish, sanoat korxonasi xodimlarini evolyusion boshqarish rivojining tendensiyalarini tadqiq etish, "xodimlarni boshqarish" biznes-jarayonining konseptual sxemasini ishlab chiqish, xodimlar kompetentligini boshqarishning xorij tajribalarini o'rganish natijalariga asoslanib, ularni O'zbekiston Respublikasida qo'llash imkoniyatlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish kabi masalalar o'rganilgan.

Inson resurslarini boshqarishni rivojlantirishning hozirgi bosqichida xodimlarni boshqarishga kompetentlikka asoslangan yondashuv asosan istiqbolli hisoblanadi. 1970-yillardan boshlab xodimlarni boshqarish amaliyotida bu yondashuv samarali usul sifatida xodimlarni tanlash, rag'batlantirish, o'qitish va rivojlantirish, baholash jarayonlarida qo'llanilib kelinmoqda. 1959 da R.Uayt tomonidan yaxshi ishlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qobiliyatlarni aniqlash, ta'limni hisobga olish va uni amalga oshirish uchun o'quv jarayonida yuqori motivatsiyani shakllantirish uchun "kompetentlik" atamasi amaliyotga kiritilgan. "Kompetensiya", "kompetentlik" va "kompetentlik yondashuvi" kabi

atamalar soʻnggi oʻn yil ichida respublikamizda ham keng qoʻllanilmoqda. R.Uayt kompetentlikni “ ... shaxsning atrof-muhit bilan samarali aloqasi...” deb hisoblagan⁶ va “kompetentlik motivatsiyasi” zarurligini eʼtirof qilgan. “Kompetentlik motivatsiyasi” gʻoyasi D. Makklelland asarlarida davom ettiriladi. Uning nuqtayi nazaridan aql emas, kompetentlik samarali ishlash uchun asosdir. “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” asarida J.Raven “kompetentlik” tushunchasini tashkil topgan hodisa sifatida batafsil tushuntirib beradi: «...koʻpgina tarkibiy qismlardan iborat hodisalar bir – biridan nisbatan mustaqil, ayrim tarkibiy qismlari esa ancha kognitiv, boshqalari esa -emotsional, bu komponentlar bir-birini samarali xulq-atvor komponentlari sifatida almashtirishi mumkin»⁷. “Kompetentlik” tushunchasiga turlicha yondashuvlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, kompetentlik yondashuvi ilmiy maktab izdoshlarining ayrimlari kompetentlikni shaxs (mutaxassis) umumiy kompetentligining bir qismi deb hisoblaydilar. Masalan, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari oʻrtasidagi munosabatni aniqlashda shunday qarashlar mavjud boʻlib, unga koʻra “kompetentlik – bu shaxsning oʻziga xos xususiyati, muayyan kompetentliklar majmuini egallash. Kompetensiya esa – bu berilgan vaziyat bilan belgilanadigan shaxsning bilim, tajriba, harakat qilish qobiliyati va xulq-atvor koʻnikmalarining birligi”, maʼnosini anglatadi. Bu talqinda kompetentlik turli xil kompetent va (yoki) kompetensiyani oʻz ichiga oladi.

Taʼriflarning gnoseologik tadqiqotlarini umumlashtirib, “kompetentlik” tushunchasiga quyidagi mualliflik taʼrifini beramiz: “Sinergetik taʼsirning ijobiy rivojlanishini hisobga olgan holda insonga kasbiy muhitda yoki boshqa vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi tegishli qobiliyatlar, majburiyatlar, bilim va koʻnikmalar klasteri”.

Dissertatsiyada boshqaruv tizimidagi elementlardan biri sifatida biznes-jarayonining konseptual sxemasini ishlab chiqilgan (1-rasm).


Natijaga taʼsir etuvchi kirish elementlari, chiqish elementlari, chikish, boshqarish hamda resurslardan iborat tarkib biznes-jarayon diagrammasida aniq ajralib turibdi. Korxonaning oʻziga xos ish jarayonlarini belgilash, ularni ifodalash, tahlil qilish va tadqiq qilish hamda muqobillashtirish — bu korxonaning samarali ishini tashkil etish, uning raqobatbardoshligini oshirish boʻyicha faoliyatidir.

Shunday qilib, xodimlarni boshqarish zamonaviy nazariyasining oʻzagi boʻlgan jarayonli yondashuvni xodimlar kompetentligini boshqarishning uslubiy asosi sifatida qarash mumkin.

Dissertatsiyada kompetentlik yondashuvining Amerika konsepsiyasi, Yevropa va Yaponiya tajribalari oʻrganilgan va Oʻzbekiston Respublikasi, xususan, tikuv-triktaj sanoatida ularning samaralisini qoʻllash imkoniyatlari boʻyicha tavsiyalar berilgan.

⁶White, R.W. Motivation reconsidered: The concept of competence [Text] / R.W. White // Psychological review. – 2019. – № 66. — P. 297-333.

⁷Raven Dj. Kompetentnost v sovremennom obshchestve: vyavleniye, razvitiye i realizatsiya [Tekst] / Dj. Raven; per. s angl. – M.: Kogito-Syentr, 2002. – 396 s.



1-rasm. “Xodimlarni boshqarish” biznes-jarayonining konseptual sxemasi⁸

Dissertatsiyaning **“Tikuv-trikotaj korxonalarida xodimlar kompetentligini boshqarish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mutaxassislarni tayyorlashda tikuv-trikotaj tarmog‘i va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi integratsion aloqalar tahlilini amalga oshirish, sanoat va OTM o‘zaro aloqalar sxemasi ishlab chiqish, tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish holati tahlil qilish, tikuv-trikotaj korxonalarida xodimlar kompetentligini boshqarishning hozirgi holati tahlil qilish, “mutaxassis malakasi sifatini boshqarish” jarayonini boshqarish blok diagrammasini ishlab chiqish, “kasbiy kompetentlik darajasini oshirish” biznes-jarayon modelini ishlab chiqish kabi masalalar o‘rganilgan.

Faqat uchta tarkibiy qism – raqobatbardosh texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning raqobatli usullari, raqobatbardosh kadrlar — korxonaning raqobatda ustunligini ta‘minlovchi omillari sanaladi, bu esa, o‘z navbatida, uning samarali ishining kalitidir. Bu vazifalarni hal etish to‘plangan muammolarning jiddiyligi va sanoatning hududlar va umuman mamlakat xalq xo‘jaligini rivojlantirishning salohiyatli omili sifatidagi roli tufayli sanoat korxonalari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda 2019-yilda oliy o‘quv yurtlari soni 77 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ular soni 208 taga yetkazildi. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan talabalar soni ham oshib borgan. Xususan, 2020-

⁸Muallif ishlanmasi.

yilda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar soni 468399 nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan 1531662 nafarga yetkazildi yoki 3,27 barobarga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lim muassasalarini shakllantirish maqsadida 2022-yil 1-yanvardan boshlab 36 ta OTMda akademik, moliyaviy, tashkiliy-boshqaruvdagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilgan.

O'rganilayotgan tikuv-trikotaj korxonalarida mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar 1-jadvalga jamlandi.

1-jadval

To'qimachilik sanoati korxonalarida mavjud resurslardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi holati tahlili⁹

№	ko'rsatkichlar	«REKORD TEX» MCHJ			“ASAKATEKSTIL” MCHJ		
		2023 yilda	2024 yilda	farqi, (+, -)	2023 yilda	2024-yilda	farqi, (+, -)
1	Fond qaytimi, har bir ming so'miga, ming so'm	48,32	49,14	+ 0,82	62,38	55,17	- 7,21
2	Mehnat unumdorligi, ming so'm/kishi	115240	116646	+ 1406	282488	291891	+ 9403
3	Mahsulotning xom ashyo sig'imi, bir so'miga tiyin	83,4	82,8	- 0,6	83,0	82,6	- 0,4

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan to'qimachilik korxonalarida kapital resurs sanalgan mavjud asosiy fondlardan foydalanish darajasini tavsiflaydigan fond qaytimi ko'rsatkichi qiymati “REKORD TEX” MCHJda 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 0,82 ming so'mga oshishi kuzatilib, ushbu holat korxonaga so'nggi yillarda investitsiyalarni jalb etish orqali texnik parkining zamonaviy dastgohlar bilan ta'minlanganligi sanaladi. “ASAKATEKSTIL” MCHJda o'rganilayotgan davrda fond qaytimi ko'rsatkichi 2,63 ming so'mga oshishi kuzatiladi. Bunga asosiy sabab ushbu to'qimachilik korxonasida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot turlarini ishlab chiqarishga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirilganligi sanaladi. Mehnat unumdorligi “REKORD TEX” MCHJda mehnat unumdorligi ko'rsatkichi 2024-yilda 2021-yilga nisbatan 1,22 % ga, “ASAKATEKSTIL” MCHJ da esa 28,60 % ga oshishi ro'y bergan. Bunga asosiy sabab fondlarning yangilanishi sanaladi. O'rganilayotgan davrda barcha to'qimachilik sanoati korxonalarida mahsulotning xom ashyo sig'imi ko'rsatkichi kamayishi ro'y bergan.

⁹Muallif hisob-kitobi.

“ASAKATEKSTIL” MCHJ to‘qimachilik korxonasi xodimlarining aksariyati oliy kasbiy yoki o‘rta-maxsus ma‘lumotiga ega, lekin shunga qaramay, ularning kompetentlik darajasi uzoq muddatli ishga bog‘liq bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi, boshqacha qilib aytganda, bilim va ko‘nikmalarning yuqori darajasi muayyan mansab bo‘yicha ish tajribasiga ko‘proq ta’sir qiladi, degan xulosaga kelamiz.

Ushbu “ASAKATEKSTIL” MCHJ to‘qimachilik korxonasida xodimlar kompetentligini boshqarishning mavjud tizimining kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

1) korxonadagi ishlab chiqarish xodimlari kompetentligini boshqarishning mavjud tizimida qo‘yilgan maqsad ajralib turuchi o‘ziga xoslik, ma‘lum birliklarda o‘lchanadigan, vaqt bo‘yicha ma‘lum muddatlar bo‘yicha chegaralangan, asoslangan, erishishi mumkin bo‘lgan vazifalarni qamrab olgan bo‘lishi lozim. Binobarin, ushbu to‘qimachilik sanoati korxonasidagi xodimlarni boshqarish tizimida nazarda tutilgan asosiy maqsadlar SMART tamoyillar asosida tuzilmagan;

2) ushbu to‘qimachilik sanoati korxonasidagi xodimlar kompetentligini boshqarishning mavjud tizimida chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan vazifalar xodimlarni doimiy ravishda rivojlantirilib borishini to‘liq aks ettirmagan.

3) texnologiya zamonaviy va innovatsion usullarni o‘z ichiga olmaydi va yangi turdagi faoliyatni tashkil etishni o‘rganishga qaratilgan kadrlar malakasini oshirish bilan uzviy bog‘liq emas;

4) samaradorlik mezonlari aniqlashtirilmagan.

Bunday sharoitda “ASAKATEKSTIL” MCHJ ishlab chiqarish xodimlarining kompetentligini boshqarish tizimini takomillashtirishi zarur.


Dissertatsiyaning **“Tikuv-trikotaj korxonalarida xodimlar kompetentligini boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida tikuv-trikotaj korxonalarida jarayonli boshqaruv asosida xodimlar kompetentligini rivojlantirish, rahbar va mutaxassislar uchun samaradorlik matritsasi ishlab chiqish, tikuv-trikotaj korxonalarida xodimlari kompetentligini baholash usulini takomillashtirish, tikuv-trikotaj korxonalarida kompetensiyaga asoslangan xodimlarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish kabi masalalar o‘rganilgan.

Tashkilot xodimlarini sifat menejmenti tizimi jarayoniga jalb etish — bu har qanday tashkilotning ajralmas vazifasidir. Kompaniyaning biznes jarayonlarini aniqlash, ularni tavsiflash, tahlil qilish va ularni muqobillashtirish — u maqsad emas, balki korxonaning samarali faoliyatini tashkil etish va uning raqobatbardoshligini oshirishga doir faoliyat turlaridan biridir.

Bu borada tikuv-trikotaj korxonalarining kadrlar sifatini boshqarish modellarini ishlab chiqish tajribasi alohida qiziqish uyg‘otadi. Muallif tomonidan ISO 9001: 2001 “Sifat menejment tizimi. Talablar” xalkaro standarti bo‘yicha tikuv-trikotaj korxonasi jarayonlarining xilma-xilligini boshqaruv va o‘lchov jarayonlarini ta‘minlovchi asosiy biznes-jarayonlar yoki mahsulot hayotiy jarayonlariga ajratish amalga oshirildi. Natijalar asosida xodimlar kompetentligini boshqarish tizimida “kadrlar malakasi darajasini yaxshilash” modeli yaratildi.

Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan to'qimachilik sanoati korxonalarida mavjud xodimlar kompetentligi salohiyatining korxonaning menejment samaradorligiga ta'sirini diagnostika qilishda "xodimlar kompetentligi salohiyati" va "menejment samaradorligi" matritsasi taklif etilgan.

Ushbu taklif etilayotgan to'qimachilik korxonalari xodimlari kompetentligi salohiyatidan foydalanishning korxona boshqaruv samaradorligiga ta'sirini diagnostika qilish asosida kasbiy kompetentlik darajasini oshirish biznes-jarayon modelini tanlash usuli "ASAKATEKSTIL" MCHJ to'qimachilik korxonasi faoliyatida sinovdan o'tkazildi. Kasbiy faoliyatda xodimlar kompetentlik salohiyati darajasini baholash diagnostikasi natijalari bo'yicha ma'lumotlar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. To'qimachilik korxonasida xodimlar kompetentlik salohiyati va menejment samaradorligi o'zaro aloqasi matritsasi¹⁰

2-rasmda keltirilgan to'qimachilik korxonasida xodimlar kompetentlik salohiyati va menejment samaradorligi o'zaro aloqasi matritsasi ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, "ASAKATEKSTIL" MCHJ to'qimachilik korxonasida hozirda faoliyat olib borayotgan rahbar va mutaxassis toifasida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida shakllantirilgan ekspert guruhi tomonidan olib borilgan so'rov natijalarini qayta ishlash natijalari shuni ko'rsatadiki, so'rovda ishtirok etgan respondentlarining 23,4 % (A kvadrant) "yuqori" darajadagi kompetentlik salohiyatiga ega bo'lib, ular faoliyati korxonadagi menejment samaradorligining ham "yuqori" darajada bo'lishligini ta'minlab bergan.

Matritsadagi B kvadrant to'qimachilik korxonasidagi xodimlar salohiyati-ning yuqori darajadagi toifasidagilarning ushbu salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotganliklarini ifoda etib, ular faoliyati korxonani boshqarish samaradorligining «O'rta» oraliqda bo'lishligini ta'minlab bergan.

¹⁰Muallif ishlanmasi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'rovda ishtirok etgan respondentlarning aksariyat qismini E kvadrantdagilar (48,2 %) tashkil etib, bu esa, o'z navbatida ushbu to'qimachilik sanoati korxonasida xodimlarni ish joylariga qo'yilgan talablarga mos ravishda malakasi, kompetentlik darajasini inobatga olgan holda taqsimlashning amalga oshirilganligi .

2-jadval

“ASAKATEKSTIL” MCHJ to'qimachilik korxonasida 2024-yilda xodimlar kompetentlik salohiyati darajasi va menejment samaradorligini baholash natijalari, ballarda¹¹

Kompetentlik	Kompetentlik darajasi bo'yicha o'rtacha ball	Xodimlar kompetentlik darajasini rivojlan tirish salohiyati
Rivojlanish qobiliyati	2,48	2,42
Natijalarga maqsadni qaratish	2,36	
		Menejer samaradorligi
Ish jarayonini tashkil etish	2,28	2,28
Yetakchilik boshqaruv uslubi sifatida	2,22	
Tizimlari fikrlash	2,16	
Xodimlarni rivojlantirish	2,48	
Korxonada jamoaviy ishlashni ta'minlash	2,26	

Ammo, ushbu ifodalaydi kvadrantga mos keluvchi xodimlarning muntazam ravishda kompetentlik salohiyatini oshirish chora-tadbirlari amalga oshirilishi talab etiladi.

Tahlilning keyingi bosqichida ekspertlar tomonidan “ASAKATEKSTIL” MCHJ to'qimachilik sanoati korxonasida xodimlar kompetentlik salohiyati va menejment samaradorligini baholash ma'lumotlarini qayta ishlash natijalari asosida xodimlar kompetentlik salohiyati darajasining to'qimachilik sanoati korxonasidagi missiyasi, maqsadlari, strategiyasi va tanlangan korporativ madaniyati talablari bajarilish majmuasini o'z ichiga oladigan menejment samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liq funksiyasini ishlab chiqish imkonini berdi (2-jadval).

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan to'qimachilik korxonasida 2024-yilda xodimlarni tanlash, ular malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish natijalari o'laroq, “Xodimlar kompetentlik darajasini rivojlantirish salohiyati” ko'rsatkichi 5 ballik baholash tizimida 2,42 balli tashkil etgan. Korxonadagi xodimlar salohiyatidan foydalanishda hali foydalanilmayotgan ichki zahiralar yetarlichadir. Shu bilan birgalikda, xodimlar kompetentlik salohiyatidan foydalanish darajasi to'g'ridan-to'g'ri korxonani boshqarish salohiyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. 2024-yilda

¹¹Muallif tomonidan hisoblangan.

ushbu to'qimachilik korxonasida "menejment samaradorligi" ko'rsatkichi 2,28 ballini tashkil etgan.

Tadqiqot jarayonida kasbiy malakaga talab etiladigan kompetensiya va vazifalar o'rtasidagi muvofiqlik darajasi asosida tikuv-trikotaj korxonalari xodimlari kompetentlik darajasi integral oraliq natijalari yondashuviga ko'ra baholashning takomillashtirilgan usuli ishlab chiqilgan. Ushbu usulning bosqichlar quyidagilar sanaladi. Kompetensiyalar majmuasining ichki tuzilishi ekspert reytingi yordamida ochib beriladi: oliy ta'lim standartiga muvofiq kompetensiyalar ro'yxati tuziladi; oliy ta'lim sohasi ekspertlari ta'lim dasturlaridagi o'z o'rniga ko'ra kompetensiyalarni muhimlik darajasi bo'yicha ranglarga ajratadilar (eng muhim kompetensiyaga eng yuqori rang, ya'ni 1 qo'yiladi); oldingi bosqichda olingan ekspert baholarini statistik qayta ishlash amalga oshiriladi.

– har bir kompetensiya uchun uning rangining o'rtacha arifmetik qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\bar{r}_i = \frac{1}{s} * \sum_{j=1}^m r_{ij} \quad (1)$$

bu yerda, $i = 1, 2, 3, \dots, n$ — kompetensiyaning tartib raqami;

$j = 1, 2, 3, \dots, m$ – ekspertning tartib raqami;

m – ekspertlar soni.

har bir kompetensiyaga ekspert tomonidan o'rnatilga haqiqatdagi rang darajasi qiymatining rang o'rtacha qiymatidan kvadratik chetlanishi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\delta_{r_i} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^m (r_{ij} - \bar{r}_i)^2}{m}}, \quad (2)$$

ekspertlar tomonidan belgilangan rang qiymatlarini o'z ichiga olgan ishonch oralig'i aniqlanadi. Bu interval ekspertlar mulohazalarining mushtaraklik darajasini baholash va o'ylanmasdan qo'yilgan baholarni aniqlaydi. Agar rang ishonch intervaliga tushmasa, u ma'lumotlar massividan chiqarib tashlanib, arifmetik o'rtacha va o'rtacha kvadratik chetlanish qiymatlari qayta hisoblanadi. Bu holda quyidagi intervaldan ishonch intervali sifatida foydalanamiz:

$$[\bar{r}_i - 1,5 * \delta_{r_i}; \bar{r}_i + 1,5 * \delta_{r_i}], \quad (3)$$

ekspert fikrlarining mushtarakligini baholash uchun variatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_i = \frac{\delta_{r_i}}{\bar{r}_i} * 100, \% \quad (4)$$

Agar variatsiya koeffitsiyenti 50 % dan oshmasa, ekspert xulosalarini yaxshi muvofiqlashtirilgan deb hisoblash mumkin. Bu qadamlar natijasida olingan kompetensiyalar rangi muhimlik pog'onalari deb ataladi.

Har bir kompetensiya uchun k ko'rib chiqilgan iqtisodiy mutaxassislikka bo'lgan zarurat darajasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$T_r = \sum_{i=1}^c t_{r_i}, \quad (5)$$

So'ngra kompetensiyalar rang og'irliklari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$W_r = \frac{T_r}{\sum_{i=1}^n T_i}, \quad (6)$$

Kompetensiyalar W_r miqdorning kamayib borish tartibidagi o'rinni egallaydi (eng yuqori W_r ga ega bo'lgan kompetensiya 1 rangini oladi). Olingan ranglar talab etiladigan rang deb ataladi.

Kompetentlikning miqdoriy o'lchovi sifatida foydalanishni taklif qilamiz:

$$K_{komp.} = \frac{1}{K} * \sum_{j=1}^n W_r * K_j, \quad (7)$$

bu yerda, W_r — 6-formula bilan aniqlanadigan j-kompetentlikning rang og'irligi; K_j — xodimning j-kompetensiyani egallashiga qo'yiladigan baholash balli; K — reyting shkalasining maksimal qiymati. 0-K ni (K-xodim kompetensiyaga to'liq egalik qiladi, 0-butunlay yo'q) baholash uchun har qanday yagona shkaladan foydalanish mumkin.

Tadqiqot jarayonida iqtisodchi mutaxassislar kasbiy kompetensiyasi uchun ahamiyat va talab etiladigan rangini hisoblash amalga oshirilgan. Bu holda, 60410100 — *Iqtisodiyot* bakalavriat ta'lim yo'nalishining O'z DSt 36.2002: 2015 davlat ta'lim standartiga muvofiq shakllangan kompetensiyalar ro'yxati 9 ta umumiy va 21 ta kasbiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Kasbiy kompetensiya (talab)larning muhimligi darajasini baholash jarayonida yetakchi professor va davlat imtihon komissiyasi a'zolari TTESI vakili, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 22 nafar rahbari (yetakchi mutaxassislari) ish beruvchi vakili sifatida baholash jarayonida ekspert sifatida ishtirok etdilar. Yuqoridagi sxemani qo'llash barcha kasbiy kompetensiyalar uchun ahamiyatlilik jihatidan muhimlik rangini olishga imkon yaratdi. Iqtisodiy faoliyatning har bir sohasi uchun mutaxassislar tomonidan to'ldirilgan vazifaviy kompetentlik matritsalarini jamlandi va yakuniy matritsa yaratilgan.

